

## 2020- yilning yanvar-avgust oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi jamiyat farovonligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Resurslar sarfini tejovchi samarali innovatsion iqtisodiyotni barpo etish jarayonida xizmatlar sohasi alohida o'rinni tutadi, chunki u, tovar ishlab chiqarish bilan taqqoslaganda, materiallar sarfini kamligiga, xarajatlarni tez qoplanishi va yuqori daromadlilikka ega.

Mazkur soha xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

### 2020- yilning yanvar-avgust oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

5828,3  
mlrd. so'm

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi

100,9 %

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'atlari

99,4 %

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'atlari

3 022,6  
ing so'm

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi

2020- yil  
yanvar-avgust

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'rildi.

### Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilning yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 5828,3 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 595,7 mlrd. so'mga oshdi. Taqqlaslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,9 % ni tashkil etdi.



**Xizmatlar** – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayriboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.




Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligini va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan  
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari  
(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)**

Xizmatlar - jami	Hajmi, mln. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
shu jumladan:	5 828 269,9	100,9
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	264 957,4	104,4
Moliyaviy xizmatlar	1 036 564,2	145,2
Transport xizmatlari	1 316 223,4	95,8
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 237 762,0	96,9
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	233 383,2	75,5
Savdo xizmatlari	1 882 823,1	96,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	146 855,4	87,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	257 640,0	94,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	88 786,4	80,9
Ijara xizmatlari	143 750,1	92,2
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	112 014,9	92,7
Shaxsiy xizmatlar	113 250,7	88,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	62 718,7	69,1
Boshqa xizmatlar	169 302,6	92,7

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-avgust oylarida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020- yilning yanvar-avgust oylarida ularning ulushi 32,3 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (22,6 %), moliyaviy xizmatlar (17,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (4,6 %) qayd etildi.


Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'limgan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,1 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nisbatan yuqori bo'limgan ulush sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar - 1,5 %, kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari - 1,9 %, shaxsiy xizmatlar hissasi 1,9 % ga to'g'ri keldi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rinn tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.


2020- yilning yanvar-avgust oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajida savdo xizmatlarining ulushi 32,3 % ni tashkil etib, bu 1 882,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

**Savdo** – bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.


**Savdo xizmatlari tarkibi, % da  
(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)**

**Avtomobillar  
va mototsikllar ulgurji  
va chakana  
savdosini, jumladan, ularni  
ta'mirlash xizmatlarini**

2020- yil  
yanvar-avgust



**Ulgurji savdo xizmatlari  
(avtomobillar va  
mototsikllar savdosidan  
tashqari)**



**Avtomobillar  
va mototsikllar savdosidan  
tashqari chakana savdo  
bo'yicha xizmatlar**

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

*Dastlabki ma'lumotlar*

Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiylashtirilgan savdo xizmatlari hajmining to'rtadan uch qismidan ko'proq, aniqrog'i 78,8 % iga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 15,5 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiylashtirilgan hajmidagi ulushi 5,7 % ni tashkil etdi.

### Moliyaviy xizmatlar (2020- yilning yanvar-avgust oylarida)

**Moliyaviy xizmatlar hajmi 1 036,6 mlrd. so'mni - tashkil etdi.**


**Taqqoslash uchun:** 2019- yilning yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 704,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi.



**Ularning umumiylashtirilgan hajmidagi ulushi 17,8 % ni tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2019- yilning yanvar-avgust oylarida ularni ulushi 13,5 % ni tashkil etdi.

**O'tgan yilning shu davriga nisbatan hajmni 332,6 mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.**



**Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 45,2 % ni tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2019- yilning yanvar-avgust oylarida ularni o'sish sur'ati 176,0 % ga yetgan.

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.**Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da  
(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)**

92,3 %

5,4 %

2,3 %

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 92,3 % ni tashkil etadi.

Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Yordamchi moliyaviy faoliyat

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 92,3 % ni tashkil etadi.

Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 5,4 % oralig'ida qayd etildi.


Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiyligi moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 2,3 % ni tashkil etadi.

## Dastlabki ma'lumotlar

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida, kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari dasturiy ta'minotini ishlab chiqish hamda keng interfaol xizmatlarni taqdim etishni o'z ichiga olgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektori tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

AKTdan faol foydalanish keng qamrovli infratuzilmaga asoslangan bo'lib, u eng zamonaviy uskunalar va texnologiyalar bilan jihozlangan, yuqori kadrlar salohiyatiga ega.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2020- yilning yanvar-avgust oylarida)




2020- yilning yanvar-avgust oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 265,0 mlrd. so'm darajasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati 104,4 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmdagi ulushi 4,6 % ni tashkil etdi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da**  
*(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)*



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 96,0 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushida noshirlik xizmatlari -1,7%, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 1,0 %, boshqa aloqa xizmatlari - 1,0 %, shuningdek, axborot sohasidagi xizmatlar - 0,3 % dan tashkil etdi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.

Bugungi kunda o'quv jarayonining sifati va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod metodik materiallari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

### **Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2020- yilning yanvar-avgust oylarida)**

2020- yilning yanvar-avgust oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 257,6 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi 4,4 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 94,4 % ni tashkil etdi.



**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020- yilning yanvar-avgust oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 75,5 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 233,4 mld. so'mga teng bo'lgan.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiylajmiy hajmidagi ulushi atigi 4,0 % ni tashkil etdi.



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash** bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

**Yashash bo'yicha xizmatlarning** o'sishiga asosan turizm sohasining rivojlanishi hamda dam olish uylari, kottedjlar va boshqa dam olish maskanlari xizmatlariga bo'lgan aholining talabi o'z hissasini qo'shdidi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (2020- yilning yanvar-avgust oylarida)

84,6 %



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar

Yashash bo'yicha xizmatlar

15,4 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiylajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 84,6 % bilan ustunlik qiladi.


2020- yilning yanvar-avgust oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 15,4 % ni tashkil etdi.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2020- yilning yanvar-avgust oylarida)


2020- yilning yanvar-avgust oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 88,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlar umumiy hajmida ularning ulushi 1,5 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 80,9 % ni tashkil etdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar, iste'molchilarining daromad darajasi, didi va xohish-istiklariga qarab differensiyalanadi.

## Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-avgust oylarida)



Xizmatlarning umumiy hajmida Buxoro shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 57,5 % ni tashkil etadi. Bu aholining real daromadlari boshqa viloyatlardan ko'ra yuqoriqoq ekanligi bilan izohlanadi.

## Dastlabki ma'lumotlar

Shuningdek, eng katta ulush G'ijduvon (10,0 %), Buxoro (4,1 %), Vobkent (3,5 %) va Romitan (3,3 %) tumanlarida qayd etildi.


Xizmatlar sohasining nisbatan past ko'rsatkichlari Qorovulbozor (1,6 %), Kogon (2,4 %), Olot (2,5 %), Peshko' (2,8 %) va Jondor (2,9 %) tumanlarida kuzatildi.

**Ma'lumot uchun:** 2019- yilning yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmida Buxoro shahrining ulushi 56,8 % ni tashkil etgan.

## Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da (2020- yilning yanvar-avgust oylarida)

Ushbu davrda nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Buxoro shahri (101,9 %), Jondor (100,4 %), Buxoro (100,3 %), Vobkent va Kogon (100,2 %), Olot, G'ijduvon va Shofirkon (100,1 %) hamda Romitan (100,0 %) tumanlarida qayd etildi.

O'sish sur'atining pasayishi Qorovulbozor (11,4 % ga) va Qorako'l (0,5 % ga) tumanlarida kuzatildi.





Dastlabki ma'lumotlar

Ko'rilibayotgan davrda, resurslardan samarali foydalanish natijasida hududlar bo'yicha Buxoro shahri ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu hududda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 371,0 mlrd. so'mga oshdi va 3 343,8 mlrd. so'mga yetdi.

### Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020-yilning yanvar-avgust oylarida)

Buxoro viloyati <sup>7</sup>	Hajmi, mln. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da	Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, ming so'm
Olot	144 636,2	100,1	1 458,0
Buxoro	236 487,9	100,3	1 418,6
Vobkent	205 303,3	100,2	1 468,6
G'ijduvon	580 711,4	100,1	1 910,2
Jondor	169 089,3	100,4	969,5
Kogon	142 203,0	100,2	1 816,1
Qorako'l	182 322,3	99,5	1 112,4
Qorovulbozor	95 920,7	88,6	5 241,6
Peshko'	165 351,9	100,1	1 346,5
Romitan	194 618,0	100,0	1 373,5
Shofirkon	179 639,3	100,1	1 013,2
shaharlar:			
Buxoro shahri	3 343 821,3	101,9	11 916,7
Kogon shahri	188 165,3	100,0	3 074,6

<sup>7</sup> Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmlarni qo'shgan holda

*Dastlabki ma'lumotlar*

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar G'ijduvon (580,7 mlrd. so'm), Buxoro (236,5 mlrd. so'm), Vobkent (205,3 mlrd. so'm) va Romitan (194,6 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Ma'lumki, zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda.

### Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020-yilning yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3 022,6 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 99,4 % ni tashkil etdi.



Dastlabki ma'lumotlar

**2020- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra,  
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**


Xizmatlar sohasida faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona va  
tashkilotlar soni - 16 649 birlikda

Ularning umumiyligi  
sonidagi ulushi - 63,5 %

O'tgan yilning shu davriga  
nisbatan o'sish  
sur'atlari - 118,1 %



**2020- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**




2020- yilning  
1- sentabr holatiga  
ko'ra, xizmatlar  
sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona  
va tashkilotlarning  
ulushi - 63,5 %,  
sanoat - 15,4 %,  
qishloq, o'rmon va  
baliq xo'jaligi sohasi -  
11,0 % ga yetdi va  
atigi 10,1 % qurilish  
hissasiga to'g'ri keldi.

**2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni (40,4 %) egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 12,2 % ni tashkil etdi.



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 9,0 % ga yetdi.

Sog'lijni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 3,8 % ni tashkil etdi

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 1,6 % ga teng bo'ldi.



**Ma'lumot uchun:** 2019- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 14102 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiyligi tarkibida savdo xizmatlari – 36,7 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 11,4 %, tashish va saqlash - 9,2 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 3,9 %, axborot va aloqa - 1,6 % hamda boshqa turdag'i xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar – 37,2 % ni tashkil etgan.

Respublikada xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining o'sib borayotgan to'lov qobiliyati va imtiyozlariga, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, ayniqsa zamonaviy xizmat turlariga bo'lgan iste'molchilar talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog'liqdir.

Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan xizmatlarni ishlab chiqarish hajmiga uy xo'jaliklari daromadlari va imtiyozlar, xizmatlarga tariflar, boshqa tomondan investitsiyalar, soliq, pul-kredit va davlat siyosati, ilmiy-texnik siyosat, shuningdek, kichik biznesning rivojlanishi kabi omillar ta'sir qiladi.

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**

**Tel.: 65-220-83-13**